

TARIX, MAFKURA VA JAMIYAT: GERMANIYADA O'ZGARISHLAR EVOLYUTSIYASI.

Dilbar Xomidova, Student of CSPU xomidovadilbar6@gmail.com

Mohiniso Tursunaliyeva, Student of CSPU tursunaliyevamohiniso@gmail.com

Zera Shabidinova, Teacher of CSPU shabidinova@cspu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Germaniya tarixida yuz bergan siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar evolyutsion yondashuv asosida tahlil qilinadi. Dastlabki imperiyalardan tortib, XIX asr birlashuv davri, XX asrning birinchi yarmidagi mafkura va ikkinchi jahon urushi oqibatlari, jumladan, urushdan keyin Germaniyaning ikkiga ajralishi va ularning qayta birlashuvi kabi muhim bosqichlarga e'tibor qaratilgan. Maqolada mafkura va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, siyosiy tizimlarning jamiyatga ta'siri va zamonaviy Germaniyaning shakllanishida tarixiy saboqlarning tutgan o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: siyosat, tarix, mafkura, evolyutsiya, imperiyalar, davlatlar, urush oqibatlari, jamiyat, birlashuv.

Аннотация: В данной статье политические и идеологические изменения в истории Германии рассматриваются с эволюционной точки зрения. Особое внимание уделяется важным этапам — от первых империй, периода объединения в XIX веке, идеологических процессов первой половины XX века и последствий Второй мировой войны, включая разделение Германии и её последующее воссоединение. В статье освещаются сложные взаимоотношения между идеологией и обществом, влияние политических систем на общество, а также роль исторических уроков в формировании современной Германии.

Ключевые слова: политика, идеология, эволюция, империи, государства, последствия войны, общество, объединение.

Abstract: This article analyzes the political and ideological transformations in German history through an evolutionary perspective. It focuses on key historical stages — from the early empires and the unification period in the 19th century to the ideological developments in the first half of the 20th century and the consequences of World War II, including the division of Germany and its subsequent reunification. The article explores the complex relationship between ideology and society, the impact of political systems on social life, and the role of historical lessons in shaping modern Germany.

Keywords: politics, ideology, evolution, empires, states, consequences of war, society, unification.

Kirish.

Germaniya Yevropa tarixida murakkab siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlarni boshdan kechirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Uning tarixida imperiyaviy tuzumlardan to demokratik boshqaruvgacha bo'lgan davrlar, urushlar, mafkuraviy to'qnashuvlar va ijtimoiy inqirozlar muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilar Germaniya tarixini "Ideologiyalar qarama-qarshiligi" doirasida ko'rib, jamiyat shakllanishida mafkura va siyosiy tizimlar hal qiluvchi rol o'ynaganini ta'kidlaydilar. XIX asr oxiridagi birlashuv harakati, XX asrdagi ikki jahon urushi, fashistik rejimning hukmronligi va Ikkinchi jahon urushidan so'nggi ikki qutbli Germaniyaning mavjudligi, so'ngra esa 1990-yildagi qayta birlashuv – bularning barchasi Germaniyaning tarixiy evolyutsiyasida tub burilishlar yasagan. Aynan shu davrlar davomida mafkura jamiyatga qanday ta'sir o'tkazgani, ijtimoiy ongning o'zgarishi va siyosiy tizimlarning xalq hayotiga kirib borishi muhim tahlil obyektiga aylanadi.

Metodologiya.

"Birlik va Huquq va Ozodlik" degan so'zlarni o'z davlatining shiori deb bilgan Germaniyaning buyuk tarixi bor. Hozirda poytaxti-- Berlin. Germaniya-- Parlamentlik Respublika hisoblanadi. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, Germaniya hududida inson 500-300 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan. Mil. av. 1-ming yillik oxirlarida Germaniyada joylashib olgan nemis qabilalari Rim davlati bilan to'qnashdi. Muqaddas Rim imperiyasi, bu Germaniya tarixidagi eng qadimgi va muhim imperiyalardan biri hisoblanadi. 962-yilda imperator Otto I tomonidan asos solingan. Rim federativ tuzumga ega bo'lgan, ya'ni ko'plab knyazliklar, shaharlar va qirolliklardan iborat edi. Siyosiy jihatdan markazlashmagan: imperator rahbar bo'lsa-da, haqiqiy hokimyat ko'p hollarda mahalliy hukmdorlar qo'lida bo'lgan. Papa bilan imperator o'rtasidagi nizolar diniy hokimyat va siyosiy hokimyat o'rtasidagi muvozanatni shakllantirgan. Napoleon yurishlari natijasida 1806-yilda imperator Frans II tomonidan Muqaddas Rim imperiyasi rasman tugatildi. Muqaddas Rim imperiyasi tugatilgach, Germaniya yerlarida yangi siyosiy tuzilma tashkil etildi. Vena kongressidan so'ng 1815-yil asos solingan. 39 ta mustaqil davlatdan iborat bo'lgan konfederatsiya. Prussiya va Avstriya ikki asosiy kuch markazi hisoblanadi. Germaniya birligini shakllantirishga qaratilgan dastlabki siyosiy urinishlar o'sha davrda boshlangan.

Shimoliy Germaniya Konfederatsiyasi 1867-yilda asos solingan. Prussiya qirolligi yetakchilik qilgan. Germaniyaning shimoliy qismini 22 ta davlat tashkil etgan. Prussiya boshchiligida Germaniya birligiga yo'l ochilgan. Boshqa knyazliklar va qirolliklar bilan siyosiy, iqtisodiy va harbiy integratsiyani kuchaytirgan. Ikkinchi Germaniya imperiyasi. Bu imperiya Germaniya tarixida "Germaniya imperiyasi" deb nomlanuvchi birinchi markazlashgan milliy davlat hisoblanadi va 1871-yil, Fransiya qarshi urushdagi g'alabadan so'ng Versalda e'lon qilingan. Prussiya qiroli Vilgelm I Germaniya imperatori deb e'lon qilingan. 1871-1890- yillar Bismark davri bo'lgan. O'sha davrda sotsiol-demokratlar va katoliklar ustidan siyosiy

nazorat, ijtimoiy sug'urta tizimi yaratilgan. 1890- yildan keyin Bismark lavozimdan chetlatildi. Imperator Vilgelm II tashqi siyosatda agressiv yo'l tutdi. Uning davrida harbiy kuch va mustamlakachilik ambitsiyalari ortdi. Germaniya dengiz flotini kuchaytirishga kirishdi, bu esa Britaniya bilan raqobatni kuchaytirdi. Germaniyaning Birinchi jahon urushidagi ishtiroki nafaqat Germaniya, balki butun dunyo tarixida burilish yasagan muhim jarayon hisoblanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlaka uchun kurash kuchaydi. Germaniya kech imperiyalashgan davlat bo'lib, Britaniya va Fransiya qarshi mustamlakachilik raqobatiga kirdi. O'sha davrda Germaniyada kuchli nemis millatchiligi avj olayotgan vaqt edi. Qurollanishda har bir davlat xuddi poyga o'ynayotgandek, harbiy kuchlarni kuchaytirishdi. 1912-1913- yillardagi Balkan urushlari hududiy va milliy nizolarni keskinlashtirdi. Avstriya-Vengriya valiahd shahzodasi Frants Ferdinand Serbiya millatchilari tomonidan o'ldirildi. Bu voqea Germaniya ittifoqchisi Avstriya-Vengriyani Serbiyaga qarshi urush e'lon qilishga undadi. Germaniya Avstriya-Vengriyaning asosiy harbiy ittifoqchisi sifatida Serbiyaga qarshi harakatni qo'llab quvvatladi. Rossiyaning Serbiyaga yordam berishiga javoban Germaniya Rossiyaga qarshi urush e'lon qildi. Fransiya ham Rossiyani qo'llab, Germaniyaga qarshi chiqdi. Germaniya Belgiya orqali Fransiya hujum qilganida, Britaniya ham urushga qo'shildi. Germaniya Fransiya qarshi hujumga o'tdi, lekin Marna jangida to'xtatildi. Keyinchalik okop urushiga o'tdi, ikki tomon bir joyda yillar davomida harakat qilmasdan jang qildi. Germaniya mustamlakalari Antanta tomonidan bosib olindi. Dengizda Britaniya flotiga qarshi kurashda Germaniya kuchsizroq edi. 1918-yilga kelib Germaniya ichkarisida norozilik kuchaydi, armiyada ruhiy tushkunlik, ishsizlik va ocharchilik avj oldi. Harbiy jihatdan frontlarda orqaga chekinildi. 1918-yil noyabrda Germaniya bo'ylab inqilob boshlandi. Kaiser Vilgelm II taxtdan voz kechdi, Gollandiyaga qochdi. Germaniya imperiyasi tugatildi, o'rniga Weimar Respublikasi tashkil topdi. 1919-yilda Germaniya uchun tahqirli shartnoma tuzildi. Germaniyaning harbiy kuchlari keskin qisqartirildi. Mustamlakalar va ba'zi hududlartortib olindi. Germaniya urushda "aybdor" deb e'lon qilindi. Og'ir to'lovlar to'latildi. Urushdan keyin iqtisodiy tomondan inqiroz kuchaya boshladi. Ishsizlik, oziq-ovqat tanqisligi, ishchilar va soldatlar noroziligi kuchaydi. Kommunistik va sotsial-demokratik partiyalar o'rtasida to'qnashuvlar sodir bo'ldi. Siyosiy qotilliklar va fitnalar ko'paydi.

Weimar Respublikasi-- Germaniyada Birinchi jahon urushidan keyin tuzilgan birinchi demokratik davlat tuzumi hisoblanadi. Poytaxt Berlin urushdan keyin notinch bo'lganligi sababli konsitutsiya 1919-yil yozda Weimar shahrida qabul qilindi. 1919-yil Konstitutsiya xususiyatlari:

- * Respublikaviy boshqaruv shakli.
- * Fuqarolik erkinliklari.

- * Erkak va ayollarga teng ovoz berish huquqi.
- * Prezident xalq tomonidan saylanadi.
- * Prezidentda kuchli vakolatlar.

1923-yilda Germaniya Fransiya to'lovlarni to'lay olmagach, Fransiya va Belgiya Rur sanoat hududini bosib oldi. Hukumat ish tashlashga chaqirdi, ammo bu iqtisodni buzdi. Pul chiqarish ko'payib ketdi, hattoki non narxi millionlab markaga chiqdi.

1929-yilda kuchli depressiya davri bo'ldi. AQSHdagi iqtisodiy inqiroz Germaniyaga kuchli ta'sir qildi. Korxonalar yopildi, millionlab ishsizlar paydo bo'ldi. 1933-yilda Weimar Respublikasining qulash davri bo'ldi. Uning sabablari quyidagilar:

- * Iqtisodiy inqiroz va ishsizlik.
- * Versal shartnomasiga qarshi norozilik.

* Siyosiy zaiflik. Germaniyaning tarixiy taraqqiyoti siyosat, mafkura va jamiyat o'rtasidagi murakkab va dinamik munosabatlarning yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Dastlabki imperiyalar davridan tortib, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, Weimar Respublikasi, natsist rejim, urushdan keyingi bo'linish va nihoyat qayta birlashuv jarayonlari Germaniya jamiyatida chuqur iz qoldirgan. Mazkur maqolada tahlil qilinganidek, mafkura faqat siyosiy boshqaruv shakllariga emas, balki jamiyatning ongli rivojlanishiga, ijtimoiy tartiblar shakllanishiga ham kuchli ta'sir o'tkazgan. Germaniyada kechgan siyosiy evolyutsiya zamonaviy demokratik jamiyat qurilishi uchun zarur bo'lgan saboqlarni o'z ichiga oladi.

Germaniya misolida ko'rish mumkinki, mafkuraviy qarama-qarshiliklar, siyosiy inqirozlar va urush oqibatlari orqali shakllangan tarixiy tajriba – kelajak uchun barqarorlik, birlik va erkinlik g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

- * Demokratik institutlarga ishonchsizlik.

* Natsistlar va Gitlarning ommaviy qo'llab quvvatlovi. 1933-yil 30-yanvar Adolf Gitler kansler etib tayinlandi. Shu bilan Weimar Respublikasi tugatildi.

1945-yil may oyida ikkinchi jahon urushi tugadi. Germaniya ittifoqchilari tomonidan mag'lub etildi. Germaniya barcha jihatdan vayron bo'lgan edi. Shaharlarda bombalar portlagan, millionlab odamlar vafot etgan va iqtisodiyot falokat yoqasiga kelib qolgan. Urushdan keyin Germaniya 4 sektorga bo'linib ketdi. Ular, Amerika sektori, Britaniya sektori, Fransiya sektori, Sovet Ittifoqi sektori. Berlin shahri ham 4 sektorga ajratildi, garchi u SSSR zonasida joylashgan bo'lsa ham. 1949-yilda Germaniya ikkiga bo'lindi: G'arbiy Germaniya va Sharqiy Germaniya.

1. G'arbiy Germaniya:

* 1949-yil 23-mayda AQSH, Britaniya va Fransiya zonalari birlashtirilib, demokratik davlat e'lon qilindi.

* Poytaxt-- Bonn shahri.

* Iqtisodiy model-- kapitalistik.

* Siyosiy tizim-- demokratik-parlamentlar respublika.

2. Sharqiy Germaniya:

* 1949-yil 7-oktabrda Sovet Ittifoqi zonasi asosida kommunistik davlat tashkil topdi.

* Poytaxt-- Sharqiy Berlin.

* Siyosiy model-- kommunistik bir partiyaviy tizim.

* Sovet Ittifoqining qattiq nazorat ostida bo'lgan. 1990-yil 3-oktyabrda Sharqiy va G'arbiy Germaniya birlashdi.

Xulosa.

Germaniyaning tarixiy taraqqiyoti siyosat, mafkura va jamiyat o'rtasidagi murakkab va dinamik munosabatlarning yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Dastlabki imperiyalar davridan tortib, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, Weimar Respublikasi, natsist rejim, urushdan keyingi bo'linish va nihoyat qayta birlashuv jarayonlari Germaniya jamiyatida chuqur iz qoldirgan. Mazkur maqolada tahlil qilinganidek, mafkura faqat siyosiy boshqaruv shakllariga emas, balki jamiyatning ongli rivojlanishiga, ijtimoiy tartiblar shakllanishiga ham kuchli ta'sir o'tkazgan. Germaniyada kechgan siyosiy evolyutsiya zamonaviy demokratik jamiyat qurilishi uchun zarur bo'lgan saboqlarni o'z ichiga oladi. Germaniya misolida ko'rish mumkinki, mafkuraviy qarama-qarshiliklar, siyosiy inqirozlar va urush oqibatlari orqali shakllangan tarixiy tajriba – kelajak uchun barqarorlik, birlik va erkinlik g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Berghahn, V. R. Imperial Germaniya 1871-1918. London: Berghahn Books, 1994.
2. Evans, R.J. Uchinchi reyxning paydo bo'loishi. NyuYork: Penguin Books, 2003.
3. Fulbruk, M. Germaniyaning qisqacha tarixi. London: Cambridge University Press, 2004..
4. Goloshekin, A. Yu. Germaniya tarixi. Moskva: Prosveshcheniye, 2010.
5. Kitchen, M. Zamonaviy Germaniya tarixi: 1800-yildan hozirgacha. Oksford: Blackwell Publishing, 2006.
6. Mazower, M. Qorong'I qit'a: Yevropaning XX asrdagi tarixi. Penguin, 1998.
7. Usmonov, X. Germaniya tarixi: o'tmish va hozirgi holat. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2007.
8. G'aybullayev, M. Yevropa mamlakatlari tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.